

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Suyarov Mahmudjon Sobirjon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti talabasi

E-mail: suyarovmahmud2@gmail.com

Annotatsiya: Turli millatga mansub xalqlarning bir tan-u bir jon bo‘lib hayot kechirishi O‘zbekiston deb atalmish jannatmakon o‘lka hayotining yuksak insonparvarlik qadryati hisoblanadi. Ushbu xalqlarning barchasi huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyatlariga ko‘ra mutlaqo tengdirlar. Bu tenglik qator qonun hujjatlari hamda bosh qomusimiz orqali huquqiy jihatdan mustahkamlanib qo‘yilgan. Islom dini bilan bir qatorda boshqa diniy konfessiyalarning ham hech qanday qarshiliklarsiz rivojlanishi uchun sharoit yaratilgan.

Kalit so‘zlar: Baynalminal, bag‘rikenglik, totuvlik, millat, do‘stlik, qonun.

INTERNATIONAL PEACE AND RELIGIOUS TOLERANCE ARE THE HIGHEST VALUE OF THE UZBEK PEOPLE

Abstract: The coexistence of peoples of different nationalities is one of the highest human values in the life of the paradise of Uzbekistan. All these peoples are absolutely equal in terms of access to rights and freedoms. This equality is enshrined in law through a number of laws. Along with Islam, conditions have been created for the development of other religious denominations without any resistance.

Keywords: Baynalminal, tolerance, harmony, nation, friendship, law.

Turli millat va elat vakillarining tinch-totuv, o‘zaro hamkorlikda yashashi xalqlarning do‘stlik rishtalarini mustahkamlaydi, o‘zaro urush hamda ziddiyatlarni oldini oladi. Ko‘p millatli, turli diniy e‘tiqodli o‘zbek xalqi orasida millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi g‘oyalarni targ‘ib etish g‘oyat muhim ahamiyatga ega masaladir. Shu sababli yoshlarimiz avvalboshdan o‘zga millatlarning milliy, madaniy an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalanmoqda.

Millatlararo munosabatlarning do‘stona bo‘lishi o‘zbek xalqi uchun o‘ta muhim omildir. Chunki, aholimiz milliy tarkibining qariyb 19 % ini o‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan millatlar va elat vakillari tashkil etadi. Ularning jipsligini saqlash uchun harakatlar hali mamlakatimiz mustaqillikka erishmasdan avval, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan boshlangan edi. Chunonchi, Baynalminal Madaniyat Markazi tashkil etilishi ishlari 1989-yildayoq boshlandi. 1992-yilga kelib ushbu BMM mustaqil tashkilot sifatida paydo bo‘ldi [1] Bu markazning asosiy vazifasi turli milliy guruhlarining ehtiyojlarini imkon qadar o‘rganish, qondirish, milliy qadryatlarini saqlab qolish hamda rivojlantirish hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda Adliya vazirligi ro‘yxatidan rasman o‘tgan 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritmoqda[1, B.105]. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan va bu kabi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Turli elatlararo barqaror aloqalar va diniy sabr-toqat davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lida erishgan yuksak yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bunday natijaga faqat izchil, haqqoniy, dadil, adolatli va qat‘iyatli siyosiy faoliyat bilangina erishish mumkindir.

Turli millatlarning turfa xil tillariga chuqur hurmatni saqlagan holda, o‘zbekmilliy teleradiokompaniyasining teleko‘rsatuvlari 10 dan ortiq tillarda efirga uzatilmoqda. Shuningdek, gazeta va jurnallar ham 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida darslar 7 ta tilda olib borilmoqda hamda turli tillarda darsliklar yaratilmoqda. Bu kabi ishlarning samarasi o‘laroq, turli millatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, birodarlik rishtalari mustahkamlanmoqda.

Sohadagi ishlarni rivojlantirish uchun bajarilayotgan ishlarni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tizimli ravishda davom ettirmoqda. Chunonchi, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan, besh yillik dasturni belgilab bergan Harakatlar strategiyasi loyihasidan ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchalari munosib o‘rin oldi[2]. Xalqaro hamjamiyatiga ham xalqlar totuvligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tatbiq etishga harakat qilinmoqda. Xususan, Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish masalasiga alohida to‘xtaldi[3]. Ushbu rezolutsiya diniy erkinlikni ta‘minlash, turfa dinlarga e‘tiqod qiluvchi, davlatda milliy ozchilikni tashkil qiluvchi fuqorolarning huquqlarini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan.

Ko‘p millatli va turlicha diniy e‘tiqodli mamlakatlar aholisiga har doim dahshatli bir xavf tahdid solib turadi. Bu – fuqorolar urushidir. Bu terminga yozuvchi O‘tkir Hoshimovning so‘zlari bilan izoh beradigan bo‘lsak, ” urushning yaxshisi bo‘lmaydi. Ammo eng dahshatli urush – fuqorolar urushi. Negaki, u avloddan avlodga “meros” o‘tib, abadiy davom etadi!”. Shu sababli, har bir milliy madaniyatning o‘ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanishi g‘oyasini ham tan olmog‘imiz joizdir. Chunonchi, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek, bir millatning yoki diniy jamoaning ikkinchi bir shu kabi guruhdan ustun turishini yoqlovchi harakat o‘ta salbiy oqibatlarga olib kelishi, hatto millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy hamda diniy betoqatlik kabi nohush holatlarga olib kelishi mumkin [4, B.52].

Diniy bag‘rikenglik — bu ko‘p millatli davlatda qurilishi lozim bo‘lgan poydevorning bir qismidir. Yurtimizda millatlararo munosabatlar qonun hujjatlari vositasida mustahkamlanib qo‘yilgan va sohadagi ishlar jadal davom ettirilmog‘da. Jumladan, konstitutsiyamizning 18-moddasida davlatimizdagi barcha fuqorolar dini va millatidan qat‘iy nazar qonun oldida tengligi, bir xil huquq hamda erkinliklarga ega ekanligi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, 2019-yil 15-noyabrda “Millatlararo

munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Prezidentimizning maxsus Farmoni[5] hamda 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va do‘stlik aloqalari qo‘mitasi huzurida jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori[6] fikrimiz isbotidir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bashariyat tajribasini o‘rganib, tahlil qilar ekanmiz millatlararo do‘stlik rishtalari hamda diniy sabr-toqat kabi g‘oyalar davlatning ham bugungi ham ertangi barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Bu ayniqsa, ko‘p millatli va turli diniy e’tiqodli xalqlardan tashkil topgan davlatlar oldidagi kun tartibidagi masalaga aylanmoqda. Bunday mamlakatlarda diniy bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat tushunchalari jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Respublika baynalminal madaniyat markazining 25 yilligi tantanali nishonlandi // <https://kun.uz/uz/91578014> , 01.20.2022.
2. Шавкат Миромонович Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т: Ўзбекистон, 2017. – 128 Б.
3. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari bilan uchrashdi // <https://president.uz/oz/lists/view/1062> , 01.18.2022.
4. Ислом Каримов. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т: Ўзбекистон, 1996. – 52 Б.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-4597662> , 01.19.2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-3476918>, 01.19.2022.